

PUDRAT SHARTNOMALARIDA ISH NATIJASIGA ERISHMASLIK XAVFINI TARAFLAR O'RTASIDA TAQSIMLASH MASALALARI

Sheraliyeva Zebiniso Sayfulla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

zebinisosheraliyeva2002@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada pudrat shartnomasida natija nima ekanligi, pudrat shartnomalarida ish natijasiga erishmaslik xavfini taraflar o'rtasida taqsimlash masalalari, har bir pudrat shartnomasida natijaga erishmaslik va buning oqibatlarida kimlar qanday javobgarlik olishlari, ushbu masalalar chet davlatda qanday tartibda hal etilayotganligi kabi masalalar O'zbekiston va chet davlatlar qonunchilik hujjatlari asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar pudrat, bajariladigan ishlar, natijaga erishmaslik, buyurtmachi, pudratchi, ayb, shartnoma

ISSUES OF DISTRIBUTION OF THE RISK OF NOT ACHIEVING THE RESULT OF THE WORK IN THE CONTRACTUAL AGREEMENTS BETWEEN THE PARTIES

Sheraliyeva Zebiniso Sayfulla qizi

3rd year student of Tashkent State University of Law

zebinisosheraliyeva2002@gmail.com

Abstract. In this article, what is the result in the contract, the issues of sharing the risk of not achieving the work result in the contract between the parties, the failure to achieve the result in each contract and who is responsible for its consequences, how these issues are resolved in foreign countries, Uzbekistan and analyzed on the basis of legal documents of foreign countries.

Key words: contract, work to be performed, failure to achieve results, customer, contractor, fault, contract.

Kirish va dolzarbligi

Pudrat shartnomalari eng ko‘p tarqalgan shartnomalardan biri hisoblanadi. Pudrat shartnomasini tuzish orqali uy-joylarni qurish, kapital ta’mirlash, loyihalash, qayta tiklash, inshootlar qurib berish, qidiruv va texnologik ishlarni bajarish kabi munosabatlar yaratilinadi.

Pudrat shartnomasi aholining maishiy ehtiyojlarini qondirishning bir yo‘li bo‘lgan bo‘lsa, hozirga kelib ahamiyati tobora ortib borayotgan va tadbirkorlikning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib bormoqda, negaki qurilish pudrati asosida tadbirkorlar foyda olish bilan bir qatorda aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini ham qondirib bormoqdalar. Dastlab, Rim huquqi sivilistlari ham pudrat munosabatlarini, uning vujudga kelish asoslarini, munosabatni tartibga solish usul va vositalarini, nizolarni bartaraf etish masalalarini ilmiy va amaliy tadqiq etishga harakat qilishgan hamda u davrda amalda boigan turli normativ hujjatlar orqali tartibga solishga harakat qilishgan Pudrat shartnomasi (locatio-conductio operis) rim huquqida ashyolarni, ishlari va xizmatlarni ijaraga berish shartnomasi (locatio-conductio) ning bir turi sifatida qaralgan¹.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha Fuqarolik Kodeksining 631-moddasida keltirilganidek, pudratchi buyurtmachining topshirig‘i bilan ish bajarishi va uning natijasini topshirishi lozim bo‘lsa, ikkinchi tomon bo‘lgan buyurtmachi ushbu ish va uning natiasi uchun haq to‘lash majburiyatini oladi. Pudrat shartnomasining maishiy pudrat, qurilish pudrati, loyihalash va qidiruv ishlari pudrati, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari kabi turlari mavjud. Bu turlarning har birida tegishli ish bajarilib, uning natiasi buyurtmachiga topshiriladi.

Ish bajarilib, keyin natija topshirilish bilan bir qatorda natijaga erishilmaslik oqibati ham mavjud bo‘lib, bu boshqa shartnoma turlarida

¹ Гражданское право. 4.2. под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. - М.: Проспект. 2005.-358 6

uchragani kabi pudratda ham ko‘zlangan natijaga erishmaslik holatidir. Pudrat shartnomasida bajariladigan ishlar, ishni bajarish muddati va ishning bahosi muhim shartlari hisoblanadi. agar ushbu shartlari mavjud bo‘lmasa, shartnoma tuzilmagan hisoblanadi. Natija bu ko‘zlangan shartnomada taraflar kelishib olgan ijtimoiy munosabatlar obyekti va bir vaqtida shartnoma predmeti hamdir. Ish bajarilar ekan uning natijasi qanday bo‘lishi, albatta, mavhum hisoblanadi. Demak, natijaga erishmaslik oqibati qanday bo‘ladi? Javobgarlik masalasi qanday hal etiladi degan savollarga quyida javob berishga harakat qilamiz.

Pudrat shartnomasi bo‘yicha bajariladigan ishlar.

Fuqarolik Kodeksining 632-moddasiga ko‘ra, pudrat shartnomasi ashyni tayyorlash yoki uni qayta ishlash (ishlov berish) yoxud boshqa ishni bajarib, natijasini buyurtmachiga berish yoki boshqacha tarzda topshirish haqida tuziladi². Pudrat ashyyoga nisbatan ma’lum ishlarni amalga oshirgan holda uning natijasini buyurtmachiga topshirish shartnomasi hisoblanadi. Har bir shartnoma ma’lum maqsadni ko‘zlab tuziladi. Masalan, oldi-sotdi mulkka egalik qilish uchun, ijara shartnomasi mulkdan foydalanish, ayirboshlash tovarga boshqa bir tovvari almashishni ko‘zda tutadi. Pudratda ham buyurtmachi shartnoma tuzar ekan, uning shartnomadan ko‘zlagan maqsadi ishning natijasiga egalik qilish hisoblanadi. Masalan, maishiy pudratni oladigan bo‘lsak, buyurtmachi, ya’ni fuqaro, biror tikuvchilik sexiga borib mato beradigan bo‘lsa, uning shartnomadan olishni niyat qiladigani tikilgan, tayyor kiyim bo‘ladi. Asosiysi bu kiyim, uning sifati, yaroqliligi va belgilangan muddatda tikib topshirilishi taraflar o‘rtasidagi shartnoma va qonun normalari bilan belgilab qo‘yilishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali masaladir.

Qurilish pudrati ham va qolgan pudrat turlari ham xuddi shunday bo‘ladi. Uy qurish yuzasidan pudrat shartnomasi bo‘lsa, shartnoma ko‘rsatilgan uyni

² O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi- 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son <https://lex.uz/docs/-180552>

qurib topshirishni tegishli muddatda topshirmagan uchun pudratchi Fuqarolik Kodeksining 666- va 680-moddalarida nazarda tutilgan tartibda topshirish majburiyatini bajarmaganligi yuzasidan javobgar bo‘ladi. Buyurtmachi ham o‘ziga yuklatilgan haq to‘lash majburiyatini bajarishi quyidagicha, ya’ni: Fuqarolik Kodeksining 638-673-moddalari va Oliy sud Plenumining “Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Qarorining 19-bandiga ko‘ra, buyurtmachi pudratchining bajargan ishi uchun smetada nazarda tutilgan miqdorda, qonun yoki qurilish pudrati shartnomasida belgilangan muddatda va tartibda haq to‘laydi. Aks holda ikki o‘rtada nizo chiqishiga sabab bo‘ladi va xarajatlar pudratchi tomonidan yuqoridagi huquqiy asoslar va haq to‘lanmaganligi dalillari keltirilgan holda undirib olinishi mumkin.

M.LBraginskiy ushbu holat haqida fikr yuritar ekan, turli xil ish va xizm atlarga ehtiyojni qondirishning asosiy usuli qullarning harakati shartnomalaming bunday birlashuviga asos bo‘lgan. Agar ish bajarish uchun qul yollangan bo‘lsa, ashyolarni ijaraga berish shartnomasi tuzilgan, agar ijrochi erkin rim fuqarosi bo‘lsa, u holda pudrat yoki xizmatlar ijarasi shartnomasi tuzilgan. Lekin xizmatlar ijarasi va pudrat shartnomalari bir-biridan ajratilgan. Bular orasidagi farq pudrat shartnomasi bo‘yicha har doim m a’lum iqtisodiy natija (opus) ga erishilgan, xizmatlar ijarasida esa bunday natija kelib chiqmasligi bilan belgilangan³.

Demak, pudratchi ishining bajarilishi ma’lum bir natijaga erishishni ko’zda tutgan. Masalan, ashyolarni ishlab chiqarish, uning ta’mirlanishi, uning iste’mol xususiyatlarining yaxshilanishi yoki o’zgarishi yoxud ijrochidan aniq ashyoviy yoki moddiy natijani olishga yo‘nalgan bo‘ladi.

³ Брагинский М.И. Договор подряда и подобные ему договоры. -М.: 1999, -10 б.

Pudrat shartnomalarida natijaga erishmaslik xavfi.

Pudratdan ko‘zlangan natijaga doim ham erishib bo‘lmaydi. Taraflar o‘zaro kelishib, ma’lum natijani ko‘zlab shartnoma tuzadilar. Natija bu moddiy natija hisoblanadi. Ish sifatli bo‘lmasligi yoki kelishilganidek bo‘lmasligi mumkin, lekin bunda natija mavjud bo‘ladi. Masalan, kiyim buyurtmachi xohlagan o‘lchamda, u xohlagan fasonda bo‘lmasligi mumkin, lekin natijada bor. Mato kiyimga aylangan. Natijaga erishmaslik esa mato o‘sha matoligicha qolishi va hech qanday o‘zgarish, qayta ishslash bo‘lmasligi lozim. Xususan, tikuvchi kasal bo‘lishi, qurilish zona konservatsiya qilinishi va ilmiy-tekshirish, konstruktorlik va texnologiyada kelishilganidek yangilik yaratib bo‘lmasligi, yangi texnologiya yaratib bo‘lmasligi holati yuzaga keladi. Pudratda pudratchi aynan o‘zi aybdor bo‘lgan holatda javobgar bo‘ladi. Mato kiyimga aylanmadni va tikuvchi buyurtmani safarga ketganligi uchun bajarmagan. Lekin bunda buyurtmachining emas, pudratchining aybi bilan, negaki u bu holatda buyurtmachini ogohlantirishi va bo‘yniga mas’uliyat olganligini tushunib yetishi lozim edi. Tikuvchilik sexi yopilib ketsa, mana bu obyektiv sabab bilan natijaga erishib bo‘lmaslik sifatida baholanadi. Bunda pudratchi olishi mumkin bo‘lgan foydadan ayrilsa, buyurtmachi vaqtini bekorga sarflagan va matosini kiyimga ham aylantira olmay qoladi. Maishiyda natijaga erishmaslik xavfi har tomonda turli oqibatlarga olib keladi. Lekin buyurtmachi boshqa joyda kiyim tiktirishi mumkin, lekin pudratchi oladigan pulidan ayrıldi. Tavakkalchilik pudratchida ko‘p bunda.

Qurilish pudratida, masalan, qurilish zonasi konservatsiya qilinsa, bunda pudratchining javobgarligi yo‘q. Shu sababli Fuqarolik Kodeksining 679-moddasiga ko‘ra, agar taraflarga bog‘liq bo‘lmanan sabablarga ko‘ra qurilish pudrati shartnomasi bo‘yicha ishlar to‘xtatilgan bo‘lsa va qurilish obyekti konservatsiya qilingan bo‘lsa, buyurtmachi pudratchiga konservatsiya qilingan

paytga qadar bajarilgan ishlarni haqining hammasini to‘lashi, shuningdek ishlarni to‘xtatish va qurilishni konservatsiya qilish zaruriyati tufayli qilingan xarajatlarni to‘lashi shart⁴.

Natija bu ashlyoga moddiy ishlov berish, qayta ishslash yoxud boshqa ishlarni bajarish orqali muayyan yangilik hosil qilish tushuniladi. Ushbu yangilik hosil qilinmadimi, kelib chiqadiki, natijaga erishilmadi. Maishiy va qurilish pudrati shartnomalarida natijaga erishish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Sababi shuki, buyurtmachi aynan qurilish ishlari, tikuvchilik va yoki boshqa shu kabi pudrat shartnomasida bajariladigan ishlarni qiladigan shaxslarga buyurtma beradi. Buyurtma olgan pudratchilar ham o‘zlarida aynan bir ishni takrorlaganliklari uchun buyurtmani boshqa oldin o‘zlarini bajargan ishlarni amalga oshirish ehtimollari juda yuqori. Qurilishda natijaga erishib bo‘lmaslik xavfi taqsimlanishini quyidagicha ta’riflash mumkin. Pudratchi olishi mumkin bo‘lgan foydaning asosiy qismidan ayrilsa, buyurtmachi qilgan sarf xarajatlari evaziga qurilgan obyektni ola olmaydi. Lekin buyurtmachi juda ko‘p narsa yo‘qotmaydi, buning sababi agar qurilish hududi konservatsiya qilinsa, buyurtmachiga Yer Kodeksining 82-moddasiga ko‘ra, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijara chilarining aybi bo‘lmagan holda buzilgan yer uchastkalarini vaqtincha konservatsiya qilish natijasida ulardan keladigan daromadning kamayishini davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qisman qoplash amalga oshiriladi⁵. Bunda pudratchi ko‘proq narsa yo‘qotishi oydin bo‘ladi.

Loyiha va qidiruv ishlari pudrati, ilmiy-tekshirish, tajriba-konstrukturlik va texnologiya pudrati esa doim yangiliklar qilishga asoslanganligi sababli ushbu pudrat shartnomalarida natijaga erishmaslik xavfi yuqori bo‘ladi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi- 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son <https://lex.uz/docs/-180552>

⁵ Yer Kodeksi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son <https://lex.uz/docs/-152653>

O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasiga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritiladi. Ushbu Qonunning 19-moddasiga binoan budget mablag‘lari va budgetdan tashqari mablag‘lar hisobiga, shuningdek chet el investitsiyalarini O‘zbekiston Respublikasining Hukumati kafolati ostida jalb etilgan holda moliyalanadigan investitsiya loyihalari ekspertizadan o‘tkazilishi shart⁶. Bunday ekspertizada investitsiya qilinadigan hududda korxona qurish uchun yaroqliligi, sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablar, iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish hajmi va muddatlarini asoslovchi ma’lumotlar loyiha va qidiruv pudrati shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Loyiha va qidiruv maxsus bilim va ko‘nikma talab qilganligi uchun har kimga ham ishonib topshirilmaydi. Qidiruv ishlari orqali ma’lumotlar to‘plansa, loyiha-smeta hujjatlarida qidiruv natijalari aks etadi va bu pudratda bajarilgan ish natijasi hisoblanadi. Mana shu natijaga erishib bo‘lmaslik deganda ushbu natija bo‘lgan hujjatlarni tuzishning imkonи bo‘lmasligini tushunishimiz lozim. Pudratchi qidiruv ishlari orqali hudud qurilish uchun yaxshi joymi, yoki sanitariya jihatidan tozami kabi savollarga javob topishning imkonи bo‘lmasligi mumkin. Masalan, karantin vaqtida barcha uyida o‘tirdi va hududning tozaigini va qurilish qilish uchun talabga javob beradimi degan savollarga javob olib bo‘lmadi va loyiha-smeta hujjatini tayyorlab bo‘lmadi. Bu ishni boshqa pudratchiga topshirganda ham hamma joyda karantin va obyektiv sabablar tufayli natijaga erishib bo‘lmaydi. Mana shunday holatda Fuqarolik Kodeksi

⁶ O‘zbekiston Respublikasi ning “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; <https://lex.uz/docs-4664142>

688-moddasiga ko‘ra, buyurtmachi barcha ishlar bajarib bo‘linganidan keyin belgilangan narxning hammasini pudratchiga to‘lashi yoki ishlarning ayrim bosqichlari tugallanganidan keyin narxning tegishli qismini to‘lashi kerak⁷. Obyektiv sabab vujudga kelgunicha va undan keyin pudratchi o‘zi qila oladigan barcha ishni qilganligini va lekin aniq ma’lumotlar olish uchun tegishli shaxslar bilan ko‘rishishning iloji yo‘qligini isbotlasa, buyurtmachi ishlarning bajarilgan qismi uchun haq to‘laydi. Demak, bunda xavf har ikki tomonga teng tushyapti. Pudratchi olishi mumkin bo‘lgan foydadan ayrılgan bo‘lsa, buyurtmachi loyihasmeta hujjatlarini ola olmadi. Ishning natijasi bo‘lmagach unga to‘lanadigan haq ham shunga mutanosib kamaydi. Shartnoma esa bekor bo‘ladi. Negaki, bundan boshqa yo‘l mavjud emas. Axir shartnomaning muddatida bajarilmasligi va natijaga erishib bo‘lmasligi ko‘rinib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 699-moddasi ilmiy-tekshirish ishlari shartnomasidagi natijalarga erishib bo‘lmaslik oqibatlarini va qoida tariqasida ilmiy-tekshirish ishlari shartnomasini bekor qilishni nazarda tutadi. Bunda majburiy shart — pudratchiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarning bo‘lishligi, ya’ni ilmiy-tekshirish ishlari natijalarga erishib bo‘lmasligida uning aybining yo‘qligi hisoblanadi. Shuni inobatga olish lozimki sharhlanayotgan modda FK 25-bobi (341–352-moddalari) umumiyligi qoidalari ko‘zda tutilmagan hamda ilmiytekshirish ishlari yoki tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari pudrat shartnomasi bo‘yicha pudratchining aybi bo‘lmasligidan kelib chiquvchi shartnomaviy munosabatlarni tugatishning maxsus asoslarini belgilaydi. Ta’kidlash lozimki, ushbu moddada ko‘zda tutilgan oqibatlar pudratchiga bog‘liq bo‘lmagan holatlar natijasida kelib chiqqan bo‘lsa, buyurtmachi shartnomada nazarda tutilgan natijalarga erishib bo‘lmasligi aniqlaguncha amalga oshirilgan ishlar qiymatini to‘lashi shart, ammo bu qiymat shartnomada

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi- 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son <https://lex.uz/docs/-180552>

ko‘rsatilgan ishlar bahosining tegishli qismidan ortiq bo‘lmasligi lozim⁸. Ushbu holatda so‘z natijaga erishish mumkin emasligiga sabab bo‘lgan pudratchiga bog‘liq bo‘lman holatlar, shuningdek, oldini olish mumkin bo‘lman ijodiy muvaffaqiyatsizliklar oqibatida yuz bergen salbiy natija haqida so‘z bormoqda. Ilmiy-tekshirish ishlari pudrati shartnomasida hamma vaqt ham ko‘zlangan natijaga erishilavermaydi, chunki bajarilgan ishning natijasida intellektual mulk huquqi obyekti yaratilishi, bu esa o‘z navbatida mutlaq huquqlarni vujudga keltirishi mumkin. Intellektual mulk yaratish esa har doim qilinadigan ish emas. Bu ishlarni bajarishda ma’lum to‘siqlar bo‘lishi mumkin.

Demak, bu imperativ normada keltirilganidek, buyurtmachi shartnomada nazarda tutilgan natjalarga erishib bo‘lmasligi aniqlaguncha amalga oshirilgan ishlar qiymatini to‘lashi shart va bu natijaga erishib bo‘lmaslikda pudratchining aybi bo‘lmasligi lozim. Bunda xavf buyurtmachida bo‘ladi. Buyurtmachi nafaqat ishni bajartirishdan, balki obyektdan foydalanishi lozim edi, biroq natijaga erishmasa, xarajatlarni ham to‘laydi. Shu bilan birga endi obyektdan foydalanish imkon yo‘q.

Fuqarolik Kodeksi 700-moddasi tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari shartnomasidagi natjalarga erishib bo‘lmaslik oqibatlarini belgilaydi. Tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari shartnomasi bo‘yicha ishni bajarishning maqsadga muvofiq emasligi yoki mumkin emasligi shartnomani bekor qilishga sabab bo‘ladi. Buning uchun zaruriy shart bo‘lib, pudratchiga bog‘liq bo‘lman holatning mavjudligi, ya’ni tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari shartnomasi bo‘yicha ishni bajarishning maqsadga muvofiq emasligi yoki mumkin emasligida pudratchining aybining mavjud emasligi

⁸ Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Профессионал шарҳлар. Т 2./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 912 6.

hisoblanadi⁹. Bunda aybining yo‘qligini isbotlash majburiyati pudratchining zimmasida bo‘ladi va tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari shartnomasi bo‘yicha pudratchining aybisiz ishni bajarishning maqsadga muvofiq emasligi yoki mumkin emasligi aniqlansa, buyurtmachi pudratchi tomonidan yetkazilgan xarajatni to‘lashi shart. Masalan, buyurtmachi tomonidan texnik yoki boshqa boshlang‘ich hujjatlarni berishda yoki kelishishda muayyan holatlarning hisobga olinmaganligi yoki tushirib qoldirilganligi holatlarida ham kutilgan natijaga erishish mumkin bo‘lmay qolish ehtimoli mavjud. Faqat bunda pudratchining aybi bo‘lmasa shu yetarli. Demak, tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bekor qilish uchun asos ishni bajarishning maqsadga muvofiq emasligi yoki mumkin emasligi hisoblanadi. Bunda xavf buyurtmachida bo‘ladi. Buyurtmachi nafaqat ishni bajartirishdan, balki obyektdan foydalanishi lozim edi, biroq natijaga erishmasa, xarajatlarni ham to‘laydi. Shu bilan birga endi obyektdan foydalanish imkoniy yo‘q.

Rossiya bilan qiyoziy tahlil.

Rossiyaning Fuqarolik Kodeksi ayni bizda o‘rnatilgan qoidalarga mos keladi. Unda ham Rossiya Fuqarolik Kodeksiga binoan, pudrat shartnomalari haq baravariga tuziladigan va pudratchi tomonidan ma’lum bir ishlarni bajarishga va buning uchun haq olishni belgilaydigan shartnomadir.

Bajariladigan ish va uning natijasining muhimligi Rossiya qonunchiligidagi ham nazarda tutiladi. Qurilish va maishiy pudrat shartnomalarida natijaga erishmaslikda xavf pudratchida ko‘proq bo‘ladi va pudratchining javobgarlik masalalari ham anchagina. Bu kabi masalalar ham bizning Fuqarolik Kodeksimizga ayni mos keladi.

⁹ Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарх: Профессионал шарҳлар. Т 2./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 912 6.

Ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlarni bajarish bo'yicha shartnomalar buyurtmachining pudratchiga texnik topshiriq berish va u bilan dastur (texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar) yoki ish mavzusini kelishish majburiyati ham nazarda tutilishi mumkin. Agar tadqiqot ishlari davomida pudratchining ixtiyoridan kelib chiqadigan holatlar tufayli natijalarga erishish mumkin emasligi aniqlansa, buyurtmachi tadqiqot ishlarni bajarish uchun shartnomada nazarda tutilgan natijalarni olishning mumkin emasligi aniqlangunga qadar bajarilgan ishlarning narxini to'lashi shart, ammo belgilangan ish narxining tegishli qismidan oshmasligi kerak. shartnoma. Agar ishlab chiqish va texnologik ishlarni bajarish jarayonida pudratchining aybi bilan yuzaga kelgan ishni davom ettirishning mumkin emasligi yoki maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, buyurtmachi pudratchi tomonidan etkazilgan xarajatlarni to'lashga majburdir (Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 776-moddasi)¹⁰. Pudratchi buyurtmachi oldida tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlarni bajarish shartnomalarini buzganligi uchun javob beradi, agar u bunday buzilish pudratchining aybi bilan emasligini isbotlamasa (Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 401-moddasi 1-bandi). Pudratchi buyurtmachiga etkazilgan zararni, agar shartnomada ularning shartnoma bo'yicha ishlarning umumiyligi doirasida qoplanishi belgilangan bo'lsa, kamchiliklar aniqlangan ishlarning umumiyligi doirasida qoplashi shart. Yo'qotilgan foyda shartnomada nazarda tutilgan hollarda kompensatsiya qilinadi. Ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish uchun shartnoma - bu pudratchi buyurtmachining texnik xususiyatlari bilan aniqlangan, ham fundamental, ham tabiatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni o'z

¹⁰ Источник материала: <https://buhconsul.ru/uz/dogovor-po-realizacii-nauchno-tehnicheskikh-razrabotok-dogovor-na-vypolnenie/> ГРАЖДАНСКИЙ КОДЕКС РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ Принят Государственной Думой 22 декабря 1995 года

zimmasiga oladi va buyurtmachi ishni qabul qilib, unga haq to'lash majburiyatini oladi (Fuqarolik Kodeksining 769-moddasi 1-band). RF).

Ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlarni bajarish bo'yicha shartnomalarda natija yangi texnologiya, yangi ijod mahsuli deyish mumkin. Ushbu natijaga erishmaslik esa shartnomaning bajarilmaganligini anglatadi. Faqatgina shartnomaning bajarilmasligida pudratchining aybi bo'lmanan hollardagina buyurtmachi unga tegishli haqni to'laydi. Bu qoida loyiha va qidiruv shartnomasiga ham tegishlidir.

Rossiyada bir tomoni shundaki, ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlarni bajarish bo'yicha shartnomalarda uch kun ichida buyurtmachiga ishning to'xtatilishi to'g'risida, shu jumladan rejalarshirilgan natijalarga erishish mumkin emasligi yoki ishni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi sababli tegishli asoslar bilan xabar berish lozim. Demak, Rossiyada ham qonunlar bizniki bilan deyarli o'xshash.

Germaniya bilan qiyosiy tahlil.

Germaniya Fuqarolik Kodeksining 631-moddasiga ko'ra, Ishni ishlab chiqarish bo'yicha shartnomaning predmeti narsa ishlab chiqarish yoki o'zgartirish yoki ish yoki xizmat orqali erishiladigan boshqa natija bo'lishi mumkin¹¹. Bu davlatda ham pudratdan ko'zlangan maqsad natija ekanligi oydinlashadi. Shuningdek, 645-moddasiga ko'ra, agar ish qabul qilishdan oldin buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan materiallardagi nuqson yoki buyurtmachi tomonidan ishni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatma natijasida yo'q bo'lib ketgan yoki yomonlashgan yoki bajarib bo'lmaydigan holga kelgan bo'lsa, pudratchi javobgar bo'lmanan, bunga hissa qo'shadigan holat bo'lmasa, pudratchi bajarilgan ishlarga mos keladigan haqning bir qismini va mukofotga kiritilmagan xarajatlarning qoplanishini talab qilishi mumkin. Shartnoma 643-

¹¹ German Civil Code https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/

moddaga muvofiq bekor qilingan taqdirda ham xuddi shunday¹². Bunda natijaga erishmaslik xavfida buyurtmachining aybi bo'ladigan bo'lsa deyilmoqda. Bundan ko'rinadiki, pudratchi aybi bo'lmasdan turib javob bermaydi yokida qilgan xarajatlari yo'q bo'lib ketmaydi.

Germaniyada pudrat shartnomasining alohida turlari keng yoritilmagan. Pudrat bo'yicha umumiy qoidalalar amal qiladi. Asosiy urg'u qurilish pudratiga berilgan. Umumiy qoidalarda ham aytilganidek, pudratchi agar aybi bo'lmasa javob bermaydi.

Fransiya bilan qiyosiy tahlil.

Fransiya Fuqarolik Kodeksining THE LETTING/HIRING OUT OF LABOUR AND INDUSTRY-bobi mavjud. Mana shu bob pudrat shartnomalarini tartibga solib turadi. Ushbu Kodeksning 1792-moddasiga ko'ra, ishning har qanday quruvchisi qonunga ko'ra, buyurtmachi oldida, hatto yerning nuqsoni tufayli binoning barqarorligiga putur etkazadigan yoki unga bir joyda ta'sir qiladigan zararlar uchun javobgardir. uning maqsadlari uchun yaroqsiz holga keltiradigan uning muhim tarkibiy qismlari yoki qo'shimcha elementlaridan biri. Agar quruvchi zararlar begona sabablarga ko'ra natijaga erishib bo'lmaslik holati bo'lganligini isbotlasa, bunday javobgarlik yuzaga kelmaydi¹³. Ko'rinib turganidek, Fransiyada pudratchiga bog'liq bo'lмаган holatlar bo'lsa ham pudratchining tavakkalchiligi sababli shartnoma tuzilganligi uchun pudratchi javobgar bo'ladi. Faqat bir istisno u ham boshqa shaxslarning natijani olib bo'lmasligiga sabab bo'lishi javobgarlikdan ozod qiladi. Boshqa tarafdan javobgarlik masalalari va ularning muddatlari ham O'zbekiston qonunchiligidagi keltirilgan asoslarga o'xshash.

Fransiyada natijani qabul qilib olishda maxsus kvitansiya yuritiladi. Fransiya Fuqarolik Kodeksining 1792⁶-moddasiga ko'ra, kvitansiya - bu

¹² German Civil Code https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/

¹³ France Civil Code <https://wipolex.wipo.int/en/text/450530>

buyurtmachi ishni shartli yoki shartsiz qabul qilganligini e'lon qiladigan dalolatnomadir¹⁴. Pudrat pudratchining tavakkalchiliga asoslanadi. Mana shu qoida Fransiya Fuqarolik Kodeksida mustahkamlangan. Fransiyada ham Germaniya kabi alohida pudrat turlari emas, qurilish asosan tahlil etilgan va qolgan shartnomalari uchun umumiy qoidalar keltirilgan.

Shuningdek, natijaga erishilmasa, shartnomma bekor bo'lish qoidasi mavjud. Fransiyada pudrat bir pudratchi bilan tuziladi. Shartnomma shaxsga qaratiladi. Fransiya Fuqarolik Kodeksining 1795-1796-moddalariga asosan, pudratchini yollash shartnomasi ishchi, arxitektor yoki pudratchi vafot etgan taqdirda bekor qilinadi. Ammo mulkdor ularning merosxo'rligiga shartnomada ko'rsatilgan narxga, bajarilgan ishlar va tayyorlangan materiallarning qiymatiga mutanosib ravishda to'lashi shart, agar shu vaqtgacha qilingan ishlar buyurtmachi uchun foydali bo'lsa¹⁵. Ushbu Kodeksning 1797-moddasiga binoan, pudratchi o'zi ishlayotgan shaxslarning xatti-harakatlari uchun javob beradi¹⁶. Ayonki, pudratchi asosan tavakkalchilik qiladi va natijaga erishmasa boshqa shaxslar aralashgani va o'ziga bog'liq bo'lishi mumkin bo'lмаган оқибатларда pudratchi javob bermaydi. Loyihada ham pudratchi imkoniyatni oldindan baholay olishi va shunga qarab shartnomma tuzishi lozim bo'ladi.

Xulosa

O'zbekistonda natijaga erishilmaslik xavfi buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnomma turlariga qarab turlicha taqsimlangan. Pudratning umumiy qoidalari bo'yicha tavakkalchilik pudratchida, lekin ilmiy-tekshirish, tajriba-konstrukturlik va texnologiyada natija "yangi obyekt" bo'lganligi uchun buyurtmachi xavf ostida turadi. Pudratchi baribir pul oladi. Ushbu holat Rossiyada ham biznikidek.

¹⁴ France Civil Code <https://wipolex.wipo.int/en/text/450530>

¹⁵ France Civil Code <https://wipolex.wipo.int/en/text/450530>

¹⁶ France Civil Code <https://wipolex.wipo.int/en/text/450530>

Germaniya va Fransiya kabi davlatlarda esa pudratchi tavakkalchilik qiladi. Ular uchinchi shaxs aralashadigan holatlarda javobgarlikdan cheklanishadi. Boshqa holatlarda shartnomalar natijaga bog'liqligi uchun pudratchi ishni bajarishi lozim bo'ladi. Aksinchada shartnomada xarajatlar keltirilmagan bo'lsa, daromad ololmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гражданское право. 4.2. под.ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. - М.: Проспект. 2005.-358 6
2. Брагинский М.И. Договор подряда и подобные ему договоры. -М.: 1999, -10 б.
3. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.Oqyulovning umumiy taliriri ostida. - Т.: TDYU nashriyoti. 2017. — 311 bet.
4. Fuqarolik huquqi. Q.II/M.Abdusalomov, X.Azizov, B.Axmadjonov va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent Davlat yuridik institute. – Toshkent: Adolat 2007.882 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi- 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son
6. Yer Kodeksi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son
7. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son
8. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Профессионал шарҳлар. Т 2./Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktria press, 2013. 912 б.
9. Источник материала: <https://buhconsul.ru/uz/dogovor-po-realizacii-nauchno-tehnicheskikh-razrabotok-dogovor-na-vykonenie/> ГРАЖДАНСКИЙ КОДЕКС РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ Принят Государственной Думой 22 декабря 1995 года
10. France Civil Code <https://wipolex.wipo.int/en/text/450530>
11. German Civil Code https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/